

Date: 21st October-2024

“ALPOMISH” DOSTONINING ABDUNAZAR POYONOV VARIANTIDA
“QULTOY” OBRAZI.

Samadova Hushnura Xushmurot qizi

Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs

Annotatsiya: “Alpomish” dostonining Abdunazar Poyonov varianti dostonchilikdagi an’anaviy syujetlar asosida yaratilgan, ammo o‘ziga xos xususiyatlarni ham qamrab olgan. Bunda bir qancha dostonlarda bo‘lgan syujetlarning birlashishi, shuningdek, voqealar sababining chiroyli dalillanishi kuzatiladi.

Ushbu maqolada Qultoy obrazini tahlil qildik. Abdunazar Poyonov Alpomishga ustozlik maqomidagi Qultoyni qul emas, balki aslzodalardan, ya’ni, Dobonbiyning farzandllaridan biri Bobinbiyning o‘gli, Boybo‘ri va Boysariga qarindosh – amakivachcha ekanligini ta’kidlangan.

Kalit so‘z: Alpomish dostoni, variantlilik, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Qultoy.

“Alpomish” dostoni ming yillardan buyon tillardan tillarga o‘tib, baxshilar tomonidan kuylanib kelayotgan xalq o‘zaki ijodi sanaladi.

Ma’lumki, har bir asarda yetakchi g‘oya bo‘ladi. G‘oyani yuzaga chiqarishda syujet, motiv, qahramonlardan foydalaniladi. “Alpomish” dostoni xalqning asriy g‘oyalari va intilishlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Har qanday yovuzliklarni yengib, ezgulik tantanasi uchun kurash, haqiqat va adolat g‘alabasiga intilish, baxtiyor va farovon hayot orzusi, el-u yurtga samimiy muhabbat, dushmanga shafqatsiz g‘azab va nafrat, mardlik va fidokorlik, vafo va sadoqat, do‘stlik, qardoshlik, inson huquqi va nomusini ulug‘lash qahramonlik dostoni – “Alpomish”ning asosiy g‘oyasini tashkil qiladi. Bunday oliyjanob g‘oyalar dostonida qahramonlik va vatanparvarlik motivlari orqali dostonidagi xalq qahramonlari qiyofasida, ularning kurashida ifodalanadi.

“Alpomish” dostonining barcha variantlarida Qultoy obrazi uchraydi va voqealar rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Qultoy obrazi bir qancha variantlar, jumladan, Fozil shoir, Umir shoir variantlarida kelib chiqishi qul sifatida ko‘rsatiladi va shu bilan birga Alpomishning ustoz sifatida ta’rif beriladi. Abdunazar Poyonov Alpomishga ustozlik maqomidagi Qultoy quldan emas, balki aslzodalardan ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu variantda Qultoy qul emas, balki, Dobonbiyning farzandllaridan biri Bobinbiyning o‘gli, Boybo‘ri va Boysariga qarindosh – amakivachcha sanaladi. Dostonida Qultoyning asl ismi Qulahmad, ya’ni xalqning emas, balki Allohning quli ma’nosida ishlatilgan va erkalash jarayonida Qultoy (Erkatoy qul) bo‘lib ketganligi ta’kidlanadi. Bu ta’rif ham bejiz emas. Abdunazar Poyonovning individual mahorati shundaki, baxshi Qultoy obrazini shunchaki aytib o‘tmaydi, balki Alpomishga munosib ustoz, diniy tasavvurlarga ko‘ra qirq chiltandan biri bo‘lgan Alpomishning piri sifatida ta’riflaydi.

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov “Surxon vohasi dostonchilik an’anasida “Alpomish” talqini maqolasida dostonidagi Shohimardon pir bilan bog‘liq jihatlarni izohlar



Date: 21st October-2024



ekan, uni dostonidagi Qultoy obrazi bilan birlashtiradi. “Shohimardon pir bilan bog‘liq o‘rinlar, aslida o‘zida ajdodlar kultini tamsil etgan Qultoy obraziga tegishli deb qarash kerak. Qultoy dostonida oddiy bir cho‘pon emas, Alpomishga hamisha ko‘mak beruvchi homiy ruh¹. Olim fikrini izohlar ekan, yana dostonidan misol keltiradi: “Dostonida Alpomishning Qultoyga tutingan o‘g‘il ekani aytiladi. “Bilmaganlar Alpomish Qultoyning uli der edi”. Alpomishning yelkasidagi besh panja izining biri Qultoyga tegishli ekanligi ham, zindondan qaytgan, ya‘ni qayta tirilgan Alpomishning Qultoy qiyofasiga kirishi ham bejiz emas². Dostonida Alpomishning Qultoy obrazi bilan bog‘liq o‘rinlar juda ko‘p uchraydi, ammo olim Jabbor Eshonqulov aytganidek, Shohimardon pir obrazini Qultoy deb tushunmaymiz, Qultoyni ham Shohimardon pir kabi qirq chiltanning biri deb tushunishimiz lozim. Qultoyning ustozlik, pirlilik maqomi o‘zgacha, Shohimardon pirdan g‘oyibona so‘ralsa, Qultoydan amaliy o‘rganish hodisalarini uchratamiz. Masalan, ot tanlash payti ham Qultoy ot beradi. Abdunazar Poyonov variantida Alpomish Qalmoqqa birinchi safarida o‘z otasi Boybo‘ri ruxsat bermaydi. So‘ng Qultoyga uchrab, undan oq yo‘l so‘raydi. Qultoy ot chaqirib shunday duo qiladi: “Ana, senga nasib qilgani shu ekan, nasib bo‘lsa, ishing o‘ngidan kelib, oydin yuz bilan yoringni olib kelasan”³. Alpomish uzoq safarga otasidan emas, balki Qultoy bobosidan duo olib yo‘lga tushadi. Yetti yillik zindondan qutulib qaytganda ham tuya boqayotgan otasi, qo‘y boqayotgan singlisiga o‘zini tanitmay, birinchi bo‘lib Qultoyga uchrab, undan duo so‘rashi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Alpomish Qultoyning yo‘rig‘i bo‘yicha ish ko‘radi:

– Menga duo bering, bir boshdan qirayin, – dedi.

– Bu ishing bo‘lmaydi, ... Mening bir hiylam bor, shuni qilasan. Sen bilan biz qarindosh, sening jasading mening jasadinga o‘xshaydi. Mening kiyimlarimni kiyasan, soqol-mo‘ylovni qo‘yasan. Odamlar tanimaydi, Qultoy deydi. Elni oralab yuraverasan. Do‘st kim, dushman kim ajratib olaverasan, so‘ngra do‘stni qoldirib, dushmani boshini olasan, u yog‘ini o‘zing bilasan, – dedi”⁴.

Qultoyning Alpomishga ustozlik maqomining amaliy jihatini yuqoridagi fikrlar ham isbotlaydi. Bunday o‘rinlar dostonida juda ko‘p. Qultoy Alpomishni yoshligidan boshlab tarbiyalagan. Unga “ot minish, ot chopish, ko‘pkari, qilichbozlik, nayzadastlik, olishish, ov qilish, yoy tortishni”⁵ o‘rgatib borgan. Hakimbek Qultoyni bobo deb chaqiradi. “Alpomish” dostonining deyarli barcha variantlarida Qultoy Alpomish tarafidan “bobo” yoki “ota” deb chaqiriladi. Xalqimizda “Ustoz otangday ulug‘” degan naql bor. Bu o‘rinda ustozlik maqomida bo‘lgan kishining qul bo‘lsa-da, ota kabi e‘zozlanishi, darajasi ko‘tarilishi haqida so‘z boradi. Bu holat yozma adabiyotda ham uchraydi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida sotib olingan qul – Hasanaliga Otabek “ota” deb murojaat qiladi.

¹ Alpomish. Doston. Aytuvchi Abdunazar Poyonov. Nashrga tayyorlovchi Jabbor Eshonqulov Toshkent.: “Akademnashr” 2018. 9-bet.

² O‘sha asar. 9-bet.

³ O‘sha asar. 121-bet

⁴ O‘sha asar. 390-bet

⁵ O‘sha asar. 31-bet

Date: 21st October-2024

“Alpomish” dostoni variantlari umumiy syujet qurilishi bayoni bilan bir-biriga o‘xshasa-da, voqealar tasvirining har biri o‘ziga xosdir. Hatto ayrim motivlar, ba’zi epizodlar butunlay boshqacha yo‘sinda talqin qilinadi. Bu dostonlar janubiy voha dostonchilik maktabining g‘oyaviy-badiiy an‘analarini o‘zida aks ettirganligi bilan xarakterlanadi.

“Alpomish” dostonining Abdunazar Poyonov varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti darajasida juda mukammal emasdek, ayrim o‘rinlar atay cho‘zilgandek tuyulishi mumkin, biroq “Alpomish” dostonining har bir varianti, shu jumladan, voha dostonchiligining eng go‘zal namunasi bo‘lgan ushbu variant o‘zbek xalq epik ijodida o‘z o‘rni va badiiy qimmatiga ega. Zero, mazkur variant bugungi o‘zbek dostonchilik san‘atining shakllanishi, taraqqiyot tamoyillari, “Alpomish” dostonining bugungi jonli ijro jarayonidagi holatini tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Alpomish”. Doston. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. Aytuvchi: Abdunazar Poyonov. Nashrga tayyorlovchi: Jabbor Eshonqulov. – Toshkent.: “Akademnashr” 2018.
2. Alpomish. Doston. Aytuvchilar Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi Jabbor Eshonqulov. – Toshkent.: “Akademnashr” 2019.
3. Mirzayev. T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent.: “FAN” 1968.
4. Turdimov Sh.G. Etnos va epos. Toshkent: O‘zbekiston. 2012.

